



ISLOM MADANIYATINING ILM-FAN TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

Rahimova Zarifaxon Shuxratjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Zarifaxonrahimova04@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Islom madaniyatining ilm-fan sohasiga qo'shgan beqiyos hissasi chuqur tahlil qilinadi. Islom dini tomonidan ilmga berilgan yuksak e'tibor, Qur'oni karim va hadislar orqali ilmga undovchi chaqiriqlar, musulmon dunyosida tashkil etilgan ilmiy markazlar va kutubxonalar, shuningdek, ularda faoliyat yuritgan mashhur allomalar — Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Beruniy, Umar Xayyom kabi olimlarning ilmiy merosi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqolada shuningdek, bu ilmiy yutuqlarning Yevropa uyg'onish davriga ko'rsatgan ijobiy ta'siri va hozirgi kunda bu merosning ahamiyati ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Islom madaniyati, ilm-fan tarixi, musulmon olimlari, ilmiy markazlar, ilmiy meros, tibbiyot, matematika, astronomiya, uyg'onish davri, Qur'oni karim, hadislar, ma'rifat.

Annotation This article provides a comprehensive analysis of the profound contribution of Islamic culture to the development of science. It emphasizes the high regard for knowledge in Islam, the Quranic and Hadith-based encouragement to seek education, and the establishment of scientific centers and libraries across the Muslim world. The article highlights the works and legacies of prominent scholars such as Ibn Sina, Al-Khwarizmi, Al-Farghani, Al-Biruni, and Omar Khayyam. Additionally, it explores how Islamic scientific achievements influenced the European Renaissance and examines the continuing relevance of this intellectual heritage in the modern era.



Keywords *Islamic culture, history of science, Muslim scholars, scientific centers, scientific heritage, medicine, mathematics, astronomy, Renaissance era, Quran, Hadiths, enlightenment.*

Аннотация *В статье подробно анализируется значительный вклад исламской культуры в развитие науки. Особое внимание уделяется высокому статусу знаний в исламе, призывам к обучению в Коране и хадисах, становлению научных центров и библиотек в мусульманском мире, а также деятельности выдающихся учёных, таких как Ибн Сина, Аль-Хорезми, Аль-Фаргани, Аль-Бируни и Омар Хайям. Также рассматривается влияние исламской науки на европейское Возрождение и актуальность этого научного наследия в наше время.*

Ключевые слова: *Исламская культура, история науки, мусульманские учёные, научные центры, научное наследие, медицина, математика, астрономия, эпоха Возрождения, Коран, хадисы, просвещение.*

Kirish. Islom dini nafaqat ruhiy-ma'naviy hayot, balki ilm-fan va madaniyat sohalarining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan dinlardan biridir. Qur'oni karimda o'qishga, tafakkur qilishga va ilm olishga da'vat qilinishi bu dinning ilmga bo'lgan munosabatini yaqqol namoyon etadi. VIII–XIII asrlar oralig'ida musulmon olamida yuz bergan ilmiy yuksalish butun dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Ushbu maqolada Islom madaniyatining ilm-fan rivojiga ko'rsatgan ta'siri va bu yo'nalishdagi buyuk allomalarning hissasi haqida so'z yuritiladi.

Asosiy qism. Islom dini ilm olishni har bir musulmon uchun farz deb biladi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) "Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir" degan hadislarini orqali musulmon jamiyatida ilm-fanga katta e'tibor qaratilishiga asos yaratganlar. Bu targ'ibotlar tufayli musulmonlar tomonidan ko'plab kutubxonalar, maktablar, madrasalar va ilmiy markazlar barpo etilgan.



X asrda Bag‘doddagi “Baytul-hikma” (Donishmandlar uyi) ilm-fanning markaziga aylangan. Unda yunon, hind, fors, suryoniy va boshqa tillardagi ilmiy asarlar arab tiliga tarjima qilinib, ilm-fan rivojiga katta turtki bo‘lgan.

Islom olamida yetishib chiqqan buyuk allomalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Abu Ali ibn Sino – tibbiyot, falsafa va tabiiy fanlar sohasida yuksak ilmiy ishlari bilan tanilgan. Uning “Tib qonuni” asari Yevropa universitetlarida asrlar davomida asosiy darslik sifatida o‘qitilgan.

Muhammad al-Xorazmiy – algebra va algoritm tushunchalarini joriy etgan olim. Uning asarlari matematika va astronomiya sohalarida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Abu Rayhon Beruniy – geodeziya, astronomiya, geologiya kabi ko‘plab fanlarga o‘z hissasini qo‘shgan ensiklopedik olim.

Umar Xayyom – matematik, astronom va shoir sifatida tanilgan. Uning taqvim islohoti ham o‘z davrida ancha ilg‘or hisoblangan.

Shuningdek, islom davrida kimyo, farmatsiya, zoologiya, botanika, tarix, adabiyot kabi sohalar ham jadal rivojlangan. Ilm-fanning bu tarzda rivojlanishi Yevropadagi Uyg‘onish davriga zamin hozirlab bergan.

Xulosa. Islom madaniyati nafaqat diniy, balki ilmiy va madaniy taraqqiyotga ham beqiyos hissa qo‘shgan. Musulmon olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy meros bugungi zamonaviy fanning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ilmga bo‘lgan ijobiy munosabat, tafakkur va izlanishga undovchi g‘oyalar Islom sivilizatsiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Bugungi kunda ham bu qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Большаков. О.Г. История халифата. 1-3 части. М.1989-1998
 2. Ислам. Энциклопедический словарь. М. 1991.
 3. Хасанов А.А. Макка ва мадина тарихи. Т. 1992.
- Усмон кески ўғли. Хазрати пайғамбар ҳаёти. Туркчадан Иброҳим Йўлдош
Жўрабой ўғли таржимаси. Т. 1997.